

SUN'YI INTELLEKT VOSITALARI VA DIFFERENSIAL YONDASHUV ASOSIDA BO'LAJAK INGLIZ TILI O'QITUVCHILARINING RAVON NUTQ KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

Abdullayeva Charos Farxadovna

Guliston davlat pedagogika instituti kata o'qituvchisi

abdullayevacharos710@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.22841089>

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining ravon nutq kompetensiyasini rivojlantirishda sun'iy intellekt vositalari va differensial yondashuvni integratsiyalashning metodik imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Nutqiy tayyorgarlikni talabalarning til bilish darajasi, individual ta'lim ehtiyojlari va kommunikativ imkoniyatlarini hisobga olgan holda tashkil etish zarurligi asoslanadi. Diagnostik baholash, differensial topshiriqlarni ishlab chiqish, sun'iy intellekt yordamida nutqiy mashq, real kommunikativ o'zaro ta'sir va refleksiv qayta baholashni o'z ichiga olgan besh bosqichli metodik model taklif etiladi. Sun'iy intellekt o'qituvchini yoki haqiqiy insoniy muloqotni almashtiruvchi vosita emas, balki pedagogik qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha vositasi sifatida talqin qilinadi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, differensial yondashuv, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari, ravon nutq kompetensiyasi, og'zaki kommunikatsiya, nutqiy amaliyot, kommunikativ kompetensiya, differensial topshiriqlar, ta'lim texnologiyalari.

Аннотация: В статье рассматриваются методические возможности интеграции инструментов искусственного интеллекта и дифференцированного подхода в развитии компетенции беглой речи будущих учителей английского языка. Обосновывается необходимость организации речевой подготовки с учетом уровня языковой подготовки, индивидуальных образовательных

потребностей и коммуникативных возможностей студентов. Предлагается пятиэтапная методическая модель, включающая диагностическое оценивание, разработку дифференцированных заданий, речевую практику с использованием инструментов искусственного интеллекта, взаимодействие в реальных коммуникативных ситуациях и рефлексивное повторное оценивание. Подчеркивается, что искусственный интеллект должен использоваться как дополнительный инструмент педагогической поддержки, а не как замена преподавателя или реального человеческого общения.

Ключевые слова: *искусственный интеллект, дифференцированный подход, будущие учителя английского языка, компетенция беглой речи, устная коммуникация, речевая практика, коммуникативная компетенция, дифференцированные задания, образовательные технологии.*

Abstract: *This article examines a methodological framework for developing pre-service English language teachers' fluency competence through the integration of artificial intelligence tools and differentiated instruction. The study responds to the need to prepare future English teachers not only to communicate accurately, but also to produce speech with appropriate speed, continuity, lexical accessibility, coherence, interactional responsiveness, and intelligibility. A five-stage methodological framework is proposed: diagnostic assessment, differentiated task design, AI-supported rehearsal, human interaction, and reflective reassessment. The article argues that AI should function as a pedagogically controlled support rather than a substitute for teacher mediation or authentic human communication.*

Keywords: *artificial intelligence, differentiated approach, pre-service English language teachers, fluency competence, speaking skills, teacher education, task-based learning, formative assessment*

Bugungi kunda xorijiy til o'qituvchisining kasbiy kompetensiyasi nafaqat grammatik bilim va lug'at boyligini, balki fikrni ingliz tilida tez, izchil, aniq va tabiiy tarzda ifodalash qobiliyatini ham talab etadi. Ayniqsa, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari uchun ravon nutq muhim kasbiy ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi, chunki o'qituvchi dars jarayonida nafaqat tilni o'rgatuvchi, balki uning kommunikativ namunasini yaratuvchi shaxs sifatida ham faoliyat yuritadi.

Ravonlik tushunchasini faqat tez gapirish bilan izohlash yetarli emas. Segalowitz (2010) ikkinchi til ravonligini kognitiv qayta ishlash, nutqni ijro etish hamda tinglovchi tomonidan qabul qilinadigan ravonlik kabi o'zaro bog'liq jihatlarni qamrab oluvchi ko'p o'lchovli hodisa sifatida talqin qiladi. De Jong (2018) esa ravonlikni baholashda nutq tezligi, pauza va uzilishlar, shuningdek, o'z-o'zini tuzatish kabi kuzatiladigan xususiyatlarni hisobga olish zarurligini ta'kidlaydi. Demak, ravon nutq til birliklarini tez ishlab chiqarish bilan bir qatorda fikrni izchil shakllantirish va kommunikativ vaziyatga mos ravishda davom ettirish qobiliyatini ham nazarda tutadi.

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining individual til tajribasi, lug'at boyligi, o'ziga bo'lgan ishonchi, kommunikativ ehtiyojlari va o'quv strategiyalari bir-biridan farq qiladi. Shu sababli barcha talabalar uchun bir xil og'zaki topshiriqlardan foydalanish har doim ham kutilgan metodik natijani bermasligi mumkin. Differensial yondashuv aynan shu individual farqlarni hisobga olish va ta'lim jarayonini talabalarning ehtiyojlariga moslashtirish imkonini beradi. Tomlinson (2014) differensial ta'limni o'quvchilarning tayyorgarligi, qiziqishi va o'quv profilini hisobga olgan holda ta'lim mazmuni, jarayoni va kutilayotgan natijalarini moslashtirishga asoslangan yondashuv sifatida izohlaydi.

So'nggi yillarda sun'iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi xorijiy til o'rganishda qo'shimcha og'zaki mashq imkoniyatlarini kengaytirdi. Sun'iy intellekt asosidagi suhbat vositalari talabalarga turli kommunikativ vaziyatlarni modellashtirish,

nutqni takroran mashq qilish hamda individual fikr-mulohaza olish imkonini beradi. Fathi, Rahimi va Derakhshan (2024) sun'iy intellekt vositasidagi o'zaro muloqot EFL o'quvchilarining gapirish ko'nikmalari va muloqotga tayyorligini qo'llab-quvvatlashi mumkinligini ko'rsatgan. Wang va Wen (2025) esa sun'iy intellekt vositalarining xitoylik EFL o'quvchilarining gapirish ko'nikmalari, gapirishdan xavotiri va motivatsiyasi bilan bog'liqligini tadqiq qilgan. Ekizer (2025) tomonidan amalga oshirilgan meta-tahlil ham sun'iy intellektning ingliz tilini o'qitish va o'rganish jarayonidagi imkoniyatlarini tizimli ravishda ko'rib chiqadi.

Shu nuqtayi nazardan, sun'iy intellekt imkoniyatlarini differensial yondashuv bilan birlashtirish bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining individual kommunikativ ehtiyojlariga mos ravishda ravon nutqni rivojlantirishning istiqbolli metodik yo'nalishlaridan biri sifatida qaralishi mumkin. Bunda sun'iy intellekt o'qituvchining o'rnini bosuvchi vosita sifatida emas, balki individual, takroriy va maqsadli nutq mashqlarini qo'llab-quvvatlovchi pedagogik resurs sifatida qaraladi.

Mazkur tadqiqot nazariy-metodik xarakterga ega. Tadqiqotning metodologik asosini ikkinchi til ravonligi, differensial ta'lim, vazifaga asoslangan til o'qitish hamda sun'iy intellekt yordamida til o'rganish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarning nazariy tahlili tashkil etadi.

Izlanish jarayonida quyidagi masalalarga asosiy e'tibor qaratildi:

- ravon nutqning asosiy tarkibiy komponentlarini aniqlash;
- bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining individual farqlarini hisobga olish;
- differensial og'zaki topshiriqlarni ishlab chiqish;
- sun'iy intellekt yordamida individual nutq mashqlarini tashkil etish;
- sun'iy intellekt yordamidagi mashqlarni real insonlararo muloqot bilan uyg'unlashtirish;
- ravon nutqni formativ va refleksiv baholash.

Ushbu yondashuvning nazariy-metodik tahlili natijasida sun'iy intellekt va differensial yondashuvni integratsiyalashga asoslangan besh bosqichli metodik model ishlab chiqildi. Model diagnostik baholash, differensiallashtirilgan topshiriqlarni loyihalash, sun'iy intellekt yordamida nutqni mashq qilish, insonlararo muloqot va refleksiv qayta baholash bosqichlarini o'z ichiga oladi.

Taklif etilayotgan metodik model **“Diagnostika – Differensiallashtirish – SI yordamida mashq – Insonlararo muloqot – Refleksiya”** ketma-ketligiga asoslanadi.

Birinchi bosqich – diagnostik baholash. Dastlab talabani individual ravon nutq profili aniqlanadi. Masalan, talaba ikki daqiqa davomida *“A challenging lesson I experienced”* mavzusida fikr bildiradi. O'qituvchi bunda nutqning uzluksizligi, pauzalar, leksik birliklarni tanlash, fikrlarning izchilligi, talaffuz va o'z-o'zini tuzatish holatlarini kuzatadi. Ushbu bosqichning asosiy maqsadi talabani faqat baholash emas, balki uning individual ehtiyojlari va rivojlanishi lozim bo'lgan jihatlarni aniqlashdan iborat.

Ikkinchi bosqich – differensial topshiriqlarni loyihalash. Aniqlangan individual ehtiyojlarga ko'ra topshiriqlar murakkablik darajasi va ko'mak miqdori jihatidan farqlanadi. Ko'proq ko'makka muhtoj talabalarga tayanch so'zlar, gap boshlovchi birliklar, rejalashtirish jadvallari yoki namunaviy iboralar taqdim etiladi. Nisbatan yuqori tayyorgarlikka ega talabalar esa ochiq muammoli vaziyat, spontan javob yoki fikrni turli shakllarda qayta ifodalashni talab qiladigan topshiriqlarni bajaradilar.

Uchinchi bosqich – sun'iy intellekt yordamida mashq qilish. Talaba sun'iy intellekt asosidagi suhbat vositasi orqali maqsadli kommunikativ vaziyatni mashq qiladi. Masalan, sun'iy intellekt *“ingliz tilini o'rganayotgan talaba”* rolini bajaradi, bo'lajak o'qituvchi esa unga yangi grammatik mavzuni tushuntiradi. Sun'iy intellekt kutilmagan savollar beradi va talaba ularga spontan tarzda javob qaytaradi. Topshiriq

bir necha marta takrorlanib, har bir urinishda ravonlikning muayyan jihatiga, masalan, pauzalarni kamaytirish, leksik birliklarni tezroq tanlash yoki fikrni izchil davom ettirishga e'tibor qaratiladi.

To'rtinchi bosqich – insonlararo muloqot. Sun'iy intellekt yordamidagi mashqdan so'ng talabalar topshiriqni juftlik yoki kichik guruhlarda real suhbatdoshlar bilan bajaradilar. Ushbu bosqichda navbat bilan gapirish, suhbatdoshning kutilmagan javoblariga munosabat bildirish, ma'no muzokarasi olib borish va o'z-o'zini tuzatish kabi tabiiy kommunikativ jarayonlar yuzaga keladi. Shu jihatdan sun'iy intellekt yordamidagi mashq real insonlararo kommunikatsiyani almashtirmaydi, balki unga tayyorgarlik bosqichi vazifasini bajaradi.

Skehan (1996) vazifaga asoslangan ta'limda topshiriq shartlari va takroriy bajarish imkoniyatlari til ishlab chiqarish jarayoniga ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi. Shu sababli bir xil yoki mazmunan o'xshash topshiriqni turli suhbatdoshlar bilan takrorlash ravon nutqni rivojlantirish uchun metodik jihatdan foydali bo'lishi mumkin.

Beshinchi bosqich – refleksiv qayta baholash. Talabalar o'z nutqini tahlil qilib, erishilgan yutuqlar va saqlanib qolgan qiyinchiliklarni aniqlaydilar. Masalan: *“Men tushuntirish vaqtida kamroq pauza qildim, biroq misollar keltirishda kerakli so'zlarni topishda qiynaldim.”* O'qituvchi ushbu refleksiya natijalaridan foydalanib, talaba uchun keyingi individual topshiriq yoki mashq turini belgilaydi.

Mazkur modelda ravonlik yagona ko'rsatkich orqali emas, balki bir nechta o'zaro bog'liq komponentlar asosida baholanadi.

Jumladan:

- nutqning uzluksizligi;
- pauza va ikkilanishlarni boshqarish;
- leksik birliklarni tez va mos tanlash;
- fikrlarning mantiqiy izchilligi;

- interaktiv javobchanlik;
- talaffuz va tushunarlilik;
- o'z-o'zini tuzatish.

Bunday kompleks yondashuv ravon nutqni faqat nutq tezligi bilan cheklamasdan, uni ko'p komponentli kommunikativ kompetensiya sifatida shakllantirish imkonini beradi.

Sun'iy intellekt va differensial yondashuvning integratsiyasi bir nechta metodik imkoniyatlarni ta'minlashi mumkin. Birinchidan, sun'iy intellekt talabalarga qo'shimcha og'zaki mashq imkoniyatini yaratadi. Talaba auditoriyadagi cheklangan vaqt bilan chegaralanmagan holda turli kommunikativ vaziyatlarni takroran mashq qilishi mumkin. Ikkinchidan, topshiriqning murakkablik darajasi va ko'mak miqdori individual ehtiyojlarga moslashtirilishi mumkin. Uchinchidan, takroriy sun'iy intellekt yordamidagi mashqdan keyingi insonlararo muloqot virtual mashg'ulotni real kommunikativ vaziyat bilan bog'lash imkonini beradi.

Biroq sun'iy intellektni til o'qitishning mustaqil va to'liq vositasi sifatida ko'rish metodik jihatdan to'g'ri emas. Sun'iy intellekt tomonidan taqdim etiladigan fikr-mulohaza har doim ham mutlaq aniq yoki pedagogik jihatdan maqbul bo'lmasligi mumkin. Shu sababli o'qituvchi nazorati, topshiriqning maqsadini aniq belgilash va taqdim etilgan fikr-mulohazani pedagogik jihatdan tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. TESOL International Association (2025) ham ingliz tilini o'qitishda sun'iy intellektdan mas'uliyatli, tanqidiy va pedagogik jihatdan asoslangan foydalanish zarurligini ta'kidlaydi.

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari uchun yana bir muhim jihat shundaki, ular nafaqat sun'iy intellekt vositalaridan foydalanishni, balki ulardan metodik jihatdan maqsadga muvofiq foydalanishni ham o'rganishlari kerak. Masalan, bo'lajak o'qituvchi sun'iy intellekt yordamida topshiriqni bajarish bilan cheklanib qolmasdan,

ushbu topshiriq qaysi nutq kompetensiyasini rivojlantirishini, nima sababdan muayyan talaba uchun moslashtirilganini va qanday mezonlar asosida baholanishini tushuntira olishi lozim.

Shunday qilib, sun'iy intellekt va differensial yondashuvning integratsiyasi bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida ikki tomonlama kompetensiyani — ingliz tilida ravon muloqot qilish hamda ravon nutqni pedagogik jihatdan rivojlantirish qobiliyatini shakllantirishga xizmat qilishi mumkin. Bunda asosiy metodik tamoyil texnologiyani qo'llashning o'zi emas, balki uning aniq ta'limiy maqsad, individual ehtiyoj va kommunikativ vazifa bilan uyg'unlashtirilishidir.

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining ravon nutq kompetensiyasini rivojlantirish zamonaviy ingliz tili ta'limining muhim vazifalaridan biridir. Ravon nutq faqat tez gapirish bilan cheklanmay, nutqning uzluksizligi, leksik birliklarni tanlash, fikrlar izchilligi, interaktivlik, tushunarlilik, pauzalarni boshqarish va o'z-o'zini tuzatish kabi komponentlarni qamrab oladi.

Mazkur tadqiqotda sun'iy intellekt vositalari va differensial yondashuvni birlashtiruvchi besh bosqichli metodik model taklif etildi. Ushbu model diagnostik baholashdan boshlanib, differensial topshiriqlarni loyihalash, sun'iy intellekt yordamidagi nutq mashqlari, real insonlararo muloqot va refleksiv qayta baholash bosqichlari orqali davom etadi.

Taklif etilgan yondashuv sun'iy intellektni o'qituvchining o'rnini bosuvchi vosita sifatida emas, balki individual va takroriy og'zaki mashqlarni qo'llab-quvvatlovchi pedagogik resurs sifatida talqin qiladi. Ushbu model bo'lajak o'qituvchilarning nafaqat ingliz tilida ravon muloqot qilish, balki ravon nutqni rivojlantirishga yo'naltirilgan metodik qarorlar qabul qilish kompetensiyasini shakllantirish uchun ham nazariy-metodik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Shu bilan birga, taklif etilgan modelning amaliy samaradorligini aniqlash uchun kelgusida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari ishtirokida tajriba-sinov tadqiqotlarini tashkil etish, mos baholash mezonlarini ishlab chiqish va sun'iy intellekt yordamidagi hamda an'anaviy mashg'ulotlarning natijalarini qiyosiy tahlil qilish maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. De Jong, N. H. (2018). Fluency in second language testing: Insights from different disciplines. *Language Assessment Quarterly*, 15(3), 237–254.
2. Ekizer, F. N. (2025). Exploring the impact of artificial intelligence on English language teaching: A meta-analysis. *Acta Psychologica*, 260, 105649.
3. Fathi, J., Rahimi, M., & Derakhshan, A. (2024). Improving EFL learners' speaking skills and willingness to communicate via artificial intelligence-mediated interactions. *System*, 121, 103254.
4. Segalowitz, N. (2010). *Cognitive Bases of Second Language Fluency*. Routledge.
5. Skehan, P. (1996). A framework for the implementation of task-based instruction. *Applied Linguistics*, 17(1), 38–62.
6. TESOL International Association. (2025). *Position Statement on AI for the ELT Profession*. TESOL International Association.
7. Tomlinson, C. A. (2014). *The Differentiated Classroom: Responding to the Needs of All Learners* (2nd ed.). ASCD.
8. Wang, X., & Wen, Y. (2025). The role of artificial intelligence tools on Chinese EFL learners' speaking skills, speaking anxiety, and motivation. *Acta Psychologica*, 261, 105957.